# Termiz shahrida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari qanday olib borilmoqda?



Termiz shahrida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari qanday olib borilmoqda?

Mamlakatimiz hududlari boʻylab kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda. Mavsumni betalafot oʻtkazish maqsadida kommunal sohaga daxldor xizmatlarning ish sifati va samaradorligini oshirish boʻyicha zarur choralar koʻrilgan.

Termiz shahrida 2022-2023 yillarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik koʻrish boʻyicha belgilangan reja-grafik asosida ishlar tashkil qilingan boʻlib, mahalllalarda, barcha ijtimoy soha obʼyektlari, koʻp qavatli turar joy binolarida mavjud kamchiliklar aniqlanib, ularni oʻz vaqtida bartaraf qilish yuzasidan qurilish-taʼmirlash hamda obodonlashtirish ishlari tashkil etilmoqda.

Bugun erta tongda “Chegara” mahallasida jam boʻlgan barcha mutasaddi tashkilot

rahbarlariga shahar hokimi tomonidan hududda ishlarni tizimli tashkil etish, shuningdek mahalla aholisi tomonidan kommunal sohalarga oid murojaatlarini joyida bartaraf etish bo‘yicha aniq ko‘rsatma va topshiriqlar berildi.

Ayni vaqtda mahalla hududida mavsumga tayyorgarlik ishlari jadallik bilan olib borilmoqda.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

Image not found or type unknown

Image not found or type unknown